



MUSIQA TA'LIMI ORQALI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Angren Universiteti

"Pedagogika va psixologiya"

kafedrasi o'qituvchisi

Saidov Axmatsultan Abdumannobovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda musiqa ta'limining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Unda milliy qo'shiqlar, kuylar, musiqali o'yinlar hamda an'anaviy musiqiy meros orqali bolalarda milliy o'zlikni anglash, estetik did va ma'naviy tarbiyani rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali metodlari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, musiqa ta'limi, milliy qadriyatlar, xalq qo'shiqlari, ma'naviy tarbiya, estetik tarbiya.

Formation of National Values in Children through Music Education

Abstract: This article highlights the role and significance of music education in the formation of national values in preschool-aged children. It analyzes the development of national identity, aesthetic taste, and spiritual education in children through national songs, melodies, musical games, and traditional musical heritage. In addition, effective methods for organizing music lessons are recommended.

Keywords: preschool education, music education, national values, folk songs, spiritual education, aesthetic education.

Формирование национальных ценностей у детей посредством музыкального образования

Аннотация: В данной статье освещается роль и значение музыкального образования в формировании национальных ценностей у детей дошкольного возраста. Анализируется развитие национального самосознания,



эстетического вкуса и духовного воспитания у детей посредством народных песен, мелодий, музыкальных игр и традиционного музыкального наследия. Также предлагаются эффективные методы организации музыкальных занятий.

Ключевые слова: дошкольное образование, музыкальное образование, национальные ценности, народные песни, духовное воспитание, эстетическое воспитание.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich bo'lib, bu davrda berilgan tarbiya uning butun hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jarayonda musiqa ta'limi bolalarda milliy madaniyat, urf-odatlar va an'analarni singdirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy jarayonida shakllangan madaniy, axloqiy estetik g'oyalar, tamoyillar, an'analardir. Musiqiy tarbiyada milliy qadriyatlar - bu xalq qo'shiqlari, klassik musiqiy meros, milliy cholg'u asboblari, milliy bayramalar va marosim bilan bog'liq musiqiy an'analardir.

Milliy musiqa — xalqning tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy boyligini aks ettiruvchi muhim madaniy merosdir. Xalq qo'shiqlari, laparlari, allalari va kuy-qo'shiqlari orqali bolalar milliy ruhni his etadi, o'z xalqiga bo'lgan mehr-muhabbati shakllanadi. Musiqa ta'limi jarayonida ushbu boy merosdan foydalanish bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantiradi.

Musiqa mashg'ulotlarida milliy qadriyatlarni shakllantirish quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi:

- milliy xalq qo'shiqlarini tinglash va kuylash;
- milliy raqs elementlarini musiqa bilan uyg'unlashtirish;
- xalq cholg'u asboblari bilan tanishtirish;



- musiqali sahnalashtirilgan o'yinlar va bayram tadbirlarini tashkil etish.

Bu metodlar bolalarda nafaqat musiqiy qobiliyatlarni, balki milliy madaniyatga hurmat hissini ham kuchaytiradi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bolalar jamoada ishlash, bir-birini tinglash, milliy an'analarga hurmat bilan qarashni o'rganadilar. Ayniqsa, Navro'z, Mustaqillik bayrami kabi milliy bayramlarda ijro etiladigan qo'shiqlar va kuylar bolalarda xalq an'anasiga qiziqishni oshiradi va ma'naviy tarbiyani mustahkamlaydi.

Xalq qo'shiqlarini o'rganishda bolalarga singdirish kerak:

1. Hikoya va kontekst:

Qoshiqni o'rganishda oldin hikoya qilish "Bu qo'shiq Qadim zamondan keladi. Ota bobolarimiz unu kuylagan. Bu qo'shiqda tabiat go'zalligi bahor haqida aytiladi..."

2. Musiqa tinglash:

Avval pedagog va professional ijrochining jonli\yozma ijrosini tinglash. Bolalar musiqaga "kirib" borishlari, his qilishlari kerak.

3. Matn bilan ishlash:

So'zlarni tushuntirish, tasvirlash. Agar eskirgan so'zlar bo'lsa, zamonaviy ekvivalent.

4. Melodiyani o'rganish:

Bosqichma – bosqich qisqa frazalar, takrorlash, pedagog bilan birgalikda, keyin mustaqil.

5. Emotsional ifoda:

Qo'shiqning kaykiyatini anglash ifodali kuylash – faqat texnik emas, balki xissiy.

6. Harakatlar va dramatizatsiya:

Xalq qo'shiqlari ko'pincha harakatlar, o'yin, dramatizatsiya bilan birga ijro etiladi. Bu bolalar uchun qiziqarli va samarali.

Xulosa



Xulosa qilib aytganda, musiqa ta'limi maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning muhim pedagogik vositasidir. Milliy musiqiy merosdan samarali foydalanish bolalarda estetik did, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barkamollikni rivojlantiradi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'limni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari. – Toshkent.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent.
3. Abdullayeva, M. Maktabgacha ta'limda musiqa tarbiyasi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi.
4. Yo'ldoshev, R. Bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent.
5. Karimova, N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiya. – Toshkent.
6. Rajabov, I. O'zbek xalq musiqasi va an'analari. – Toshkent: San'at.